

**LATIFA JANRIDAGI ASARLARNING O'ZBEK
FOLKLORSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI**

Maxmud Sobir o'g'li Mardonov¹

¹ Tadqiqotchi, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, tel: 998933181397,

gmail: mmaxmud1992@gmail.com

**MAQOLA
MA'LUMOTI**

MAQOLA TARIXI:

Received: 21.10.2024

Revised: 22.10.2024

Accepted: 23.10.2024

KALIT SO'ZLAR:

*latifa janri, folklor,
xalq latifalari, bir kishi,
afandi, askiya va
qiziqchilik san'ati,
Nasriddin Afandi
obrazzi, tarixiy shaxs
umumlashmasi.*

ANNOTATSIYA:

ushbu maqolada xalq og`zaki ijodiyotida janrlaridan biri bo`lgan latifalarni tadqiq etish ishlari tarixi tasnifi, uning o`rganilish metodologiyasi hamda latifa janrini alohida fundamental tadqiq etish zaruratini asoslash, o'zbek folklorshunosligida latifalarning tarixiy asoslari borasidagi o'zbek olimlari tadqiqotlari borasida fikr yuritiladi.

KIRISH. Latifalar xalq nasrining kichik janrlaridan biri bo`lib, kulgi qo`zg`ash, ijtimoiy muammolarni kulgi vositasida tanqid qilish, tinglovchilarining kayfiyatini ko`tarishga qaratilgan janr sifatida juda qadim zamonlardan xalq orasida keng ommalashib kelgan. Latifa janridagi folklor asarlarini yozib olish va ularni tadqiq etish ishlari o'zbek folklorshunosligi tarixida folklorshunosligimiz asoschisi Hodi Zarif nomi bilan bog`lanadi. Alloma XX asrning boshlarida o'zbek xalq eposi va epik janrlariga doir izlanishlari natijasida o'zbek xalq latifalarini to`plab nashr ettirgan¹. H.Zarifovning tadqiqotlarida o'zbek xalq latifalaridagi Nasriddin Afandi obrazining tarixiy ildizlari ilk bor ilmiy tadqiq etildi. Olim jahon folklorshunosligi materiallari bilan tanishib, Nasriddin Afandi obrazining nafaqat o'zbek latifalarida, balki arablar, eroniylar, Kavkaz xalqlari, O'rta Osiyo xalqlari folklorida ming yillar muqaddam mavjud bo`lganligi, 1837-yilda Istanbulda kitob holida

¹ Жўраев М. Ўзбек фольклоршунослиги. – Тошкент, Firdavs-Shoh, 2021. – Б.12.

nashr etilgan latifalar dunyo bo'ylab keng tarqalganligi va O'zbekistonga ham kirib kelganligi, ayni shu kitobning noma'lum muallif tomonidan qisqagina o'zbek tiliga tarjima qilinishi va ommalashishi natijasida o'zbek latifalarining qahramonlari Afandi bilan almashtirilganligi, aslida o'zbek latifalarida **bir kishi** obrazi mavjud bo'lganligini aniqlagan². Hodi Tillayevich Zarifovning mazkur tadqiqoti o'zbek folklorida latifa janrini alohida fundamental tadqiq etish zaruratini asoslash bilan birga latifalarning tarixiy asoslari, badiiyati, obrazlar tizimi, janr evolyutsiyasi, kompozitsiyasi, syujet muammolari kabi folklorshunoslikning yechimini kutayotgan alohida-alohida masalalari o'zbek folklorshunosligining istiqbol rejalarini aniqlab olishda muhim ahamiyat kasb etdi. Natijada o'zbek folklorshunosligida latifa janriga bag'ishlangan tadqiqotlar maydonga kela boshladi.

O'zbek folklorshunosligida latifa janridagi og'zaki asarlarni o'rganish asosan ikki yo'nalishda amalga oshirildi. Birinchisi, latifalarni el og'zidan yozib olish va ommalashtirish; ikkinchisi, latifalarni folklor janri sifatida fundamental tadqiq etishdan iborat bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida o'zbek ziyyolilari orasidan havasmand folklor to'plovchilarining maydonga kelishiga, o'zbek xalq latifalarini yozib olish ishlarining jonlanishiga olib keldi.

Jurnalist va folklor to'plovchi Sharif Rizo o'tgan asrning 30-40-yillarida olti yuzga yaqin o'zbek latifalarini to'pladi. Kulgi vositasida tafakkur va badiiy-estetik qarashlar shakllanishini yaxshi bilgan to'plovchi o'zi to'plagan latifalar ichidan eng yaxshilarini saralab, ulardan to'rt yuz sakson to'rttasini 1941-yilda "Afandi latifalari" nomi ostida oltita kitob holida chop ettirgan³. Bu harakatlar mehnatkash xalqning o'z muammolarini badiiy so'z vositasida ifodalash san'ati nechog'li go'zal shakllanganligini ko'rsatish, zahmatkash millatning teran tafakkur sohibi ekanligi va buyuk dahosidan zavqlanish, faxrlanishning oqibatida yuzaga kelgan. Latifalarni to'plash ishlarida folklor havasmandlarining faoliyati el orasida xalq og'zaki badiiy ijodiyotini sevguvchi va uni asrab qolishga jiddiy bel bog'lagan ziyyolilar sonining ortishiga sabab bo'ldi. Folklor asarlari ishqibozlari dastlab latifalarni yozib olish va ommalashtirish ishlari bilan shug'ullanishgan bo'lsalar, shu ishqibozlar ichidan keyingi avlod xalq og'zaki badiiy ijodiyotiga qiziquvchilari shakllandı. Endi ular orasidan ko'pchilik latifalarni to'plash bilan birga bu noyob janr namunalarini so'z san'ati hosilasi sifatida ilmiy tadqiq etishga ishtiyoqmandlari paydo bo'ldi.

²Зарифов Х. Ўзбек фольклоршунослиги тарихидан//Ўзбек совет фольклори масалалари. – Тошкент, 1970. – Б. 218.

³Жўраев М. Ўзбек фольклоршунослиги. – Тошкент, Firdavs-Shoh, 2021. – Б. 65-66.

Dastlab folklor ishqibozi sifatida materiallar to‘plash bilan shug‘ullangan, keyinchalik folklorshunos sifatida tanilgan Hoshimjon Razzoqov 1965-yilda Farg‘ona vodiysi latifalarini to‘plab “Latifalar” nomi ostida nashr ettirdi. Olimning mazkur kitobi bir necha marta qayta nashr etildi. Keyinroq olimning “Nasriddin Afandi latifalari” nomli kitobi e’lon qilindi⁴. Olim Farg‘ona vodiysi aholisining badiiy so‘zdan foydalanish mahorati va folklor an’analarini tadqiq etishga kirishdi. H.Razzoqov 1970-yilda “O‘zbek xalq og‘zaki ijodida satira va humor” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi⁵. Olimning tadqiqotlarida bevosita o‘zi tomonidan to‘plangan Farg‘ona vodiysi latifalari, askiya va qiziqchilik san’ati namunalari asosida folklorga xos yumorning tarixiy ildizlari, mazkur badiiy an’ananing evolyusion qonuniyatlariga doir yangi faktik materiallar va yangi xulosalar qo‘lga kiritildi. Uning 1970-yilda “Fan va turmush” jurnalida “Latifa va ularning qahramoni Nasriddin afandi” obrazi to‘g‘risidagi ilmiy maqolasi e’lon qilindi⁶. Ayni shu davrda jahon folklorshunoslida ham Nasriddin Afandi obrazi va uning sarguzashtlariga bag‘ishlangan latifalarni ilmiy tadqiq etish tendensiyasi jadal rivojlanayotgan edi.

O‘zbek folklorshunoslida latifalar borasidagi izlanishlar taniqli folklorshunos K.Imomovning “O‘zbek xalq nasri”ga bag‘ishlangan tadqiqotlarida davom ettirildi. K.Imomovning tadqiqotlarida o‘zbek xalq nasri namunalari badiiylik darajasi va janrning bajargan vazifalariga ko‘ra, ikki guruuhga bo‘lib o‘rganilishi taklif etildi. Olim mif, afsona, rivoyat, demonologik hikoyalarni izohlash, tushuntirishga xizmat qiladigan janrlar sifatida o‘rganishni taklif etgan bo‘lsa; ertak, naql, latifa va lof janrlari voqelikni badiiy tasvirlashga yo‘naltirilgan deb hisoblaydi. Olimning fikricha, “latifa o‘zbek xalq nasrining hajv, yengil humor, hazil-mutoyiba, so‘z o‘yini, masxara, nayrang ko‘rsatishga asoslangan achchiq yoki xushchaqchaq kulgi yaratuvchi mustaqil janridir. Uning voqelikni qamrovi, manbaga munosabat, badiiy aks ettirish mezonlarini aniqlash, genetik asoslari, o‘zgacha xususiyatlarini belgilash imkonini beradi. O‘ziga xoslikning ravshan tus olishida qiyosiy tahlil muayyan talabga javob beradi”⁷. K.Imomovning 2008-yilda e’lon qilingan “O‘zbek xalq nasri poetikasi” nomli monografiyasida latifalar tadqiqotining to‘rtinchi qismini tashkil etib, o‘zbek xalq latifalarining poetik tabiatini, hajv va humor, latifa termini, latifa janrining o‘zgacha uslub xususiyatlari, latifa janrining ichki turlari, latifalarning yengil humor tipi

⁴Афанди латифалари Нашрга тайёровчи Х.Раззоқов. – Тошкент, Ўзадабийнашр, 1967.

⁵Латифалар. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Нашрга тайёровчилар: Х.Раззоқов, Ш.Шомақсудов, Ш.Шораҳмедов.– Тошкент, “Тошкент” бадиий адабиёт нашириёти. 1965. – 379 б.

⁶Раззоқов Х. Латифа ва уларнинг қаҳрамони Насриддин афанди// Фан ва турмуш. 19771. 2-сон. – Б.30-32.

⁷Имомов К. Ўзбек халқ насли поэтикаси, – Тошкент, Фан, 2008. – Б.199.

kabi nazariy masalalar tahlil qilindi⁸. K. Imomov o‘zbek xalq latifalarini tanqid ko‘lami, mazmuni va mavzusiga ko‘ra ikki guruhga ajratadi. Birinchisi hajviy latifalar, ikkinchisi humor tipidagi latifalar. Bu guruhlardagi latifalarning birida hajv, ikkinchisida, hazil-huzul hal qiluvchi rol o‘ynaydi deb hisoblaydi. Olim xalq latifalarida keng ommalashgan ijtimoiy muammolarning kulgi ostiga olinishi, ijtimoiy voqeа, feudal munosabatlarni zo‘rlik sifatida baholashi, unda tanqid, kinoya, kesatiq, zaharxanda kulgi vositasida amalga oshishini ko‘rsatib o‘tadi. Ikkinci tipga latifalarning yengil tipi sifatida baho beradi. “Bu xil latifalarda asosan juz’iy kamchilik, ezmalik, o‘jar, dangasa, o‘ta go‘l, soddalik, tentaklik, mantiqsiz qiliq, kaltabinlik kabi keraksiz axloq normalarini hazil-mutoyiba yaratuvchi kulgi zaminida tanqid qiladi”⁹. Bunday latifalar hayotiy maishiy muammolar sababli kelib chiqadigan konflikt maishiy ma’no kasb etishi, yengil kulgi, yaxshi kayfiyat atrofida kelib chiqadigan mayin hazil, iliq munosabat tanbeh berib koyib qo‘yish darajasidagi tanqid vazifasini bajarishi, ammo bunda kulgi asosiy markazda bo‘lishini ta’kidlaydi.

Latifalarning tarixiy asoslari borasidagi o‘zbek olimlari tadqiqotlari orasida H.Zarifning ilmiy tahlillari va xulosalarida mustaqillik, asillikni ko‘rish mumkin. Aksariyat tadqiqotlarda kulgi va latifa janrining tarixiy asoslari, ularning syujet va kompozitsiyasi borasidagi mulohazalarda rus olimlari g‘oyalari yetakchilik qilganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu o‘rinda yana bir masalaga e’tiborni qaratmoqchimiz. Latifalarni o‘rganilishiga bag‘ishlangan tadqiqotlarning aksariyati latifalarning folklor janri ekanligini asoslashga, uning badiiy xususiyatlarini ochishga qaratilgan. Biroq latifalarning pragmatik xususiyatlarini fundamental tadqiq etish masalasiga e’tibor qaratilmaganligining guvohi bo‘ldik. Zero, latifa qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ajdodlarimiz latifalar orqali tinglovchilarni axloqiy me’yorlar asosida tarbiyalanishlarini ham ko‘zda tutgan. Latifa, tinglovchida estetik didni, badiiy fikrlashni, fahm-farosatni, muammoli vaziyatda aql bilan ish tutishni, muomala va munosabatlar madaniyatini shakllantirishda ham katta ahamiyat kasb etgan. Shunday ekan, folklor asarlarini o‘rganishda ularning pragmatik vazifalarini ham tadqiq etish masalasini kun tartibiga qo‘yish zarur. Shiddat bilan rivojlanayotgan jamiyatimizda ayni damda axborot texnologiyalarining faolligi oshmoqda. Texnik taraqqiyot yoshlarimizni kitob o‘qish, og‘zaki asarlarni tinglashdan chalg‘itadigan turli “jozibali” qurilmalarni hayotimizga kirib kelishini taqozo qilmoqda. Bugun insonning mexanik harakatlari robototexnika, aqliy harakatlari esa, sun’iy intellekt orqali amalga

⁸Ko‘rsatilgan manba... – B. 197-213.

⁹Ko‘rsatilgan manba... – B. 208.

oshirilishi toriylashmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, ma’naviyatimiz uchun tahdid soladi. Shunday ekan, olimlarimiz ma’naviy merosning mohiyatini oydinlashtirish ishlari sirasida ularning amaliy ahamiyati, yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni, ularni ommalashtirishning zamonaviy yo‘llarini ishlab chiqishi ham e’tibordan chetda qolmasligi zarur deb hisoblaymiz.

1965-1967-yillarda O‘z RFA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutida laboranti bo‘lib ishlagan folklor to‘plovchi Nasrullo Saburov tomonidan ham o‘zbek xalq latifalari yozib olinib, O‘zbek folklori arxiviga topshirilgan¹⁰. XX asrning o‘rtalaridan o‘zbek folklori materiallarini to‘plashda katta xizmat qilgan namanganlik o‘qituvchi Otash Xolmirzayev tomonidan to‘plangan materiallar ichida ham latifalardan ko‘pgina namunalar yozib olinib, folklor arxiviga topshirilgan¹¹.

Buxoro folklorini regional tadqiq etgan taniqli folklorshunos Oxunjon Safarov Buxoro latifalarining o‘ziga xosliklari va badiiy malohatini aniqlash ishtiyoqida 1990- yillarda “Shirinqishloq latifalari” nomi ostida Buxoro latifalarini to‘plab chop etirgan edi¹². Hassos folklorshunos O.Safarov mazkur to‘plamda Vobkent tumani Shirin qishlog‘i bilan bog‘liq latifalarni yozib olgan. Latifalarda bosh qahramon Shirin qishloqlik kishini – **bir shirini** (Buxoro shevasida shirini– Shirinqishloqlik kishini anglatadi) sarguzashtlari hikoya qilingan. Ustoz O.Safarov Buxoro latifalari orasida faqat shirin qishloqlik qahramon tomonidan sodir bo‘lgan epik voqealar bayoniga bag‘ishlangan latifalar alohida turkumni tashkil etishi, bunday latifalar dunyo xalqlari orasida tez-tez ko‘zga tashlanishi, latifa qahramonining Nasriddin Afandi sifatlariga juda mos fe’l-atvori borasida alohida tadqiqotlar olib borishi lozimligini uqtirgan edi.

XX asrning ikkinchi yarmida o‘zbek folklorshunosligida latifalarni to‘plash va tadqiq etish masalasi folklorshunoslikka doir tadqiqotlar kun tartibida dolzarb bo‘lib turdi. Fan sifatida to‘la shakllanib olgan o‘zbek folklorshunosligi o‘zbek folklorining asosiy janrlari sirasida latifa janri ham muhim o‘rin tutishi, latifalarning tasnifi, badiiyati, xususan, jahon folklorshunosligida keng o‘rganilayotgan Nasriddin Afandi obrazini tadqiq etish masalasiga jiddiy e’tibor qaratdi. Tadqiqotchi Farida Yo‘ldosheva 1975-yilda “Xalq qahramoni Nasriddin Afandi obrazini tipiklashtirish muammosi” mavzusida filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qildi. Aslida shu davrlarda akademik V.A.Gordlevskiyning Xo‘ja Nasriddin obrazi va latifa janri borasida e’lon qilgan tadqiqoti

¹⁰Жўраев М. Ўзбек фольклоршунослиги. Библиографик тадқикот. – Тошкент: Firdavs-Shoh, 2021. – Б.138.

¹¹Ко‘rsatilganmanba... – В.193.

¹²Сафаров О. Ширинқишлоқ латифалари. – Бухоро, “Бухоро” нашриёти, 1994.

ko‘pchilik latifashunoslarga dasturi amal vazifasini o‘tagan. O‘zbek folklorshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlarni kuzatsak, G‘arb va rus olimlarining masalaga nazariy yondashuv tendensiyasi ta’siri yaqqol ko‘zga tashlanadi. F.Yo‘ldoshevaning dissertatsiya ishida:“Tarixda Xo‘ja Nasriddin ismli shaxslar, Nasriddin Afandi prototiplarining bir qanchasi o‘tgan bo‘lishi mumkin... Mana shu tarixiy shaxslarni xalq qahramoni Xo‘ja Nasriddinga hayot bag‘ishlagan prototiplar desak bo‘ladimi? Aksincha, xalq qahramoni Nasriddin tarixiy shaxslarga shuhrat keltirdi”,-degan gipoteza olg‘a suriladi¹³. Olimaning Nasriddin Afandi obrazi borasidagi xulosalari har qalay turk va ba’zi rus olimlarining qarashlaridan farq qiladi. Rus folklorshunosi K.S.Davletov, 1961-yilda himoya qilgan “Xoja Nasriddin obrazining kelib chiqishi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida¹⁴ Nasriddin Afandi obrazining arab istilosini natijasida shakllangan, VIII-XI asrlarda xalifa Xorin Ar-Rashid zamonida yashagan Muhammad Nasriddin ismli olim ekanligiga ishontirishga urinish kuzatiladi. F.Yo‘ldoshevaning yondashuvida Nasriddin Afandi obrazi aslida muayyan tarixiy shaxslarning umumlashmasi sifatida talqin etiladi. Shuningdek, Olima Nasriddin afandining tarixiy asosi borasidagi qarashlar mazkur obraz xalq tomonidan yaratilgan tipiklashtirilgan obraz ekanligiga urg‘u beradi. Latifaning bosh qahramoni tarixiy shaxsmi yoki to‘qima obraz?- degan savolga ilmiy javob topish rus va o‘zbek olimlari tomonidan mavzuga doir ilmiy izlanishlarda asosiy masala qilib qo‘yilgan. Bu esa, umumittifoq folklorshunosligida yetakchilik qilgan folklorshunoslар maktabalarining mushtarak g‘oya atrofida izlanish olib borganliklarini ko‘rsatadi. Nazarimizda latifa qahramonining tarixiy shaxs ekanligini aniqlashtirish va ular dastlab tarixiy shaxslar bo‘lib, keyinchalik tipiklashgan obrazga aylangan bo‘lishi mumkinligini aytishda ham ma’lum siyosiy-mafkuraviy to‘sinq bo‘lgan ko‘rinadi. Latifalarda tarixiy shaxslar obrazi bo‘lishi tabiiy, biroq latifa syujetida talqin etilgan voqealar garchi tarixiy shaxslar ishtirokida sodir bo‘lsa-da, xalq tomonidan yaratilgan uydirma bo‘lishi, ular tarixiy dalil bo‘la olmasligi mumkin. Bu holatni Amerika latifalarida ham kuzatishimiz mumkin.

O‘zbek folklorshunosligida latifalarni folklor janri sifatida fundamental tadqiq etish ishlari mazmunan o‘zgarganligini kuzatamiz. 1980-yillarda o‘zbek latifalarining xorijiy tillarga tarjimasi va tarqalishi borasida ilmiy izlanishlar ham olib borildi. Ayniqsa, bu borada Yo‘ldosh Nurmurodovning “O‘zbek folklorining o‘rganilish tarixi va nemis tiliga ilmiy-adabiy tarjima qilish problemalari” mavzusida yaratgan monografik tadqiqoti alohida

¹³Йўлдошева Ф. Проблема типизации образа народного героя Ходжи Насриддина Афанди. Автореф. дисс канд. филол. наук. – Ташкент, 1975.

¹⁴Давлетов К.С.О происхождении образа Ходжи Насреддина. Дисс... канд. филол. наук.– Москва, 1961. – 210 с.

ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchi venger olimi Herman Vamberining o‘zbek folklori materiallarini, jumladan latifalarni nemis tiliga tarjima qilishi bilan bog‘liq tarixiy dalillarni qo‘lga kiritgandi. Shuningdek, Y.Nurmurodov dissertatsiya ishida nemis tarjimonlari: G.Yungbauer, K.Rayxal, D.Flaysherlarning o‘zbek xalq dostonlari, ertak va latifalarini tarjima qilishlarida uslub, milliy koloritning ifodalashida tarjimon mahorati kabi qator nazariy muammolarni o‘rganadi. Olimning 1985-yilda “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida e’lon qilgan maqolasi bevosita Xo‘ja Nasriddin Afandi latifalarining Germaniyada o‘rganilishiga bag‘ishlangan edi. Shundan keyin yangi asr ostonasida tadqiqotchining ayni shu jurnalda latifalarning nemis tiliga tarjima qilish masalalari tadqiqiga bag‘ishlangan yana bir maqolasi e’lon qilindi¹⁵.

1990-yillarda o‘zbek folklori materiallarini nashr etish ishlari jadal amalga oshirilgan paytlardan sanaladi. Bu yillarda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot instituti olimlarining fidokor mehnati samarasi sifatida o‘zbek folklori namunalarining ko‘pgina qismi kitob holida chop etildi. Latifa janriga doir asarlar ham taniqli o‘zbek folklorshunosi B.Sarimsoqov va F.Yo‘ldoshevalar tomonidan alohida to‘planib, nashr etildi. Professor B.Sarimsoqov va F.Yo‘ldoshevalar tomonidan nashrga tayyorlangan “Afandi latifalari” nomli kitobda o‘zbek xalq latifalari mavzu qamrovi nuqtayi nazaridan tartiblashtirilgan holda e’lon qilindi.

2000-yillarning boshlaridan o‘zbek folklorshunosligida latifalarning janr tabiatini va badiiy xususiyatlari masalasi yana qayta kun tartibiga qo‘yildi. Yangi asr boshlarida yangi avlod tadqiqotchilari o‘z qarashlari bilan fanga kirib keldi. “Adabiyot ko‘zgusi” ilmiy maqolalar to‘plamida B.Suvonqulovning “Og‘zaki latifalarning janr xususiyatlari”, “Latifa janrida konfliktning ba’zi xususiyatlari” maqolalari e’lon qilinishi o‘zbek latifalarining hali tadqiq etish lozim bo‘lgan masalalari borligini ko‘rsatdi. B.Suvonqulov tomonidan o‘zbek xalq latifalarida dialog, latifaning monologik hikoya shakli, janr kompozitsiyasi, latifalarda badiiy tasvir vositalari kabi qator ilmiy-nazariy muammolar o‘rganildi. 2007-yilda tadqiqotchi “O‘zbek xalq latifalarining janr xususiyatlari va badiiyati” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi¹⁶. B.Suvonqulov tomonidan yaratilgan monografik

¹⁵Нурмуродов Й. Истории изучения и проблемы научно-литературного перевода узбекского фольклора на немецкий язык. Автореф. Канд. Филол. Наук. – Ташкент, 1983; Нурмуродов Й. Хўжа Насриддин Германияда//Ўзбек тили ва адабиёти. 1985. 5-сон. – Б.17-19; Яна ўша. Ўзбек халқ латифалари немис тилида //Ўзбек тили ва адабиёти. 2000. 3-сон. – Б. 46-47.

¹⁶Бу ҳақда қаранг! Сувонкулов Б. Оғзаки латифаларнинг жанр хусусиятлари//Адабиёт кўзгуси. № 6.– Тошкент, 2000. – Б. 48-53; Ўша муаллиф. Латифа жанрида конфликтнинг баъзи хусусиятлари// Адабиёт кўзгуси. № 7.– Тошкент, 2002. – Б.147-152; Яна ўша. Латифа термини ҳақида// Ўзбек тили ва адабиёти.№1. 2002. – Б. 43-44;

tadqiqot latifa janridagi og‘zaki asarlarning genetik asoslari, shakllantiruvchi ijtimoiy-badiiy omillar, latifalarning janr sifatidagi evolyutsiyasi bosqichlari, bu janrdagi asarlarning badiiy-uslubiy vazifalari kabi nazariy muammolarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

Ko‘rib o‘tganimizdek, latifa va uning nazariy muammolari ko‘lami yangi asrda ham kengaymadi. Balki XX asr olimlari tomonidan qo‘lga kiritilgan nazariy xulosalar qayta tekshiruvlar orqali mazmunan to‘ldirilgan.

2020-yillarga kelib, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti A.Tilavov latifalarning tarbiyaviy ahamiyatini inobatga olgan holda turk mumtoz adabiyotining namoyandalaridan bo‘lgan Sayyid Burxoniddin ibn Mavlono Mavleviy tomonidan yozilgan “O‘qing, kuling, tafakkur qiling/Nasriddin Afandi latifalariga hikmatomuz sharhlar” kitobini o‘zbek tiliga tarjima qilib, unga “izoh”, “ibrat”, “maqollar” qo‘sib, so‘z boshi bilan nashrga tayyorlagan¹⁷. A.Tilavov latifalarning pragmatik xususiyatlariga bag‘ishlangan kitobni turk tilidan tarjima qilganligi, latifalarning bizdan ancha oldin turk ziyolilari tomonidan pragmatik vazifalariga e’tibor qaratilganligini isbotlash imkonini beruvchi noyob manbani o‘zbek ziyolilalariga taqdim etganligi tahsinga loyiq.

Xullas, o‘zbek folklorshunosligida latifa janridagi asarlarni o‘rganish XX asrning boshlarida dastlab latifalarni to‘plab nashr etish ishlaridan boshlangan. Latifalarni ilmiy tadqiq etish masalasida dastlab H.Zarifovning ilmiy tadqiqotlari o‘zbek folklorshunosligida latifa janridagi asarlarni fundamental tadqiq etishga asos bo‘lgan. H.Zarifovdan keyin amalga oshirilgan tadqiqotlarda latifa terminining lug‘aviy ma’nosи, latifaning janr tabiatи, badiiy xususiyatlari, Nasriddin Afandi obrazi kabi masalalar qayta-qayta tadqiq etilgan bo‘lsa-da, amalga oshirilgan tadqiqotlarda zamонавиј latifalar va latifalarning pragmatik xossalari, deyarli, o‘rganilmagan.

Яна ўша. Латифаларда диалог//Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006. № 5. – Б.65-68; **Яна ўша.** Латифа монологик ҳикоя сифатида//Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент. 2006. №6.– Б. 53-56; **Яна ўша.** Ўзбек халқ латифаларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти. Филол фанлари номз.дисс. автореф. – Тошкент, 2007.

¹⁷Сайид Бурхониддин ибн Мавлоно. Ўқинг, кулинг, тафаккур қилинг.(Насриддин Афанди латифаларига ҳикматомуз шарҳлар – 1). Таржимон ва изоҳлар муаллифи А.Тилавов. – Тошкент: Sano-standart, 2020.– 96 б.